

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTERAKTIV MASHG'ULOTLAR YORDAMIDA BOLA NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

*Jizzax viloyati Zarbdor tumani 9-son
DMTT direktor o'rinbosari
Xabibullayeva Gulchehra Achilovna*

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv mashg'ulotlarni sifatli va pedagogik texnologiyalarga boy tarzda yangi innovatsiyalar bilan uyg'un holda tashkil etishning ustivor vazifalari aks etgan bo'lib, bunda yangi pedagogik texnologiyalar asosida duduqlanadigan, gapiraolmaydigan, qisman gapiradigan yoki umuman gapirmaydigan bolalarni nutqini rivojlantirish tahlil qilib berilgan.

Tayanch so'zlar: Interaktiv mashg'ulot, interfaol usul, axborot-kommunikatsiya texnologiya, SMART, interaktiv doska.

WAYS TO DEVELOP CHILDREN'S SPEECH WITH THE HELP OF INTERACTIVE TRAINING IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation

The article reflects the priority tasks of organizing interactive training in preschool educational organizations in a high-quality and pedagogically rich manner in harmony with new innovations, and analyzes the development of speech in children who stutter, cannot speak, speak partially or do not speak at all based on new pedagogical technologies.

Keywords: Interactive training, interactive method, information and communication technology, SMART, interactive board.

Bola ulg'ayay ekan, unda so'zlashishga ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi. Dastlab atrofdagilarini taniydi, eshitgan so'z va jumllarini asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Tilga kirgach esa uning so'z boyligi jadal o'sadi. Oddiy so'zlar, keyinchalik sodda gaplardan va to'liq, yoyiq gaplardan foydalanadi. Dialogik nutq oilada, ota-ona, aka-opalar davrasida vujudga keladi. O'ziga kerakli narsani so'rash uchun harakat qiladi, muloqotga kirishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirishda oldindan tayyorlangan mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o'yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi. Ta'kidlash joizki, bola uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi.

Bola kattalar bilan dialogga kirishishga, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan so'zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o'rganganlarini faol o'zlashtiradi va undan o'z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hissasi katta.

So'nggi yillardagi ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga e'tibor berish, maktabgacha ta'limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda malaka oshirish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsiyalarni joriy etish, tarbiyachi-logopedlarni zamonaviy usullardan foydalanish, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish malaka oshirish tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar zahirida amalga oshirilmoqda. Pedagogika yo'nalishida tatbiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masala borki, u ham bo'lsa tarbiyachi-logopedlarning pedagogik jarayonni zamonaviy usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishlarini ta'minlashdir. Interfaol usullar hozirgi kunda ta'lim islohotlaridagi ustuvor jihat va pedagogik muammolarni hal etishdagi roli, ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan ekanligini e'tirof etish joizdir. Pedagogik texnologiya nazariyasining muhim jihat har bir pedagogning o'z imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'quv faolligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maktabgacha ta'limi tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bepoyondir. Bugungi kunda ta'lim tizimida elektron interaktiv doska, interaktiv proektor, interaktiv panel va ularning o'rnini bosuvchi interaktiv qurilmalar kabi o'qitishning zamonaviy interaktiv texnik vositalari shiddat bilan kirib kelmoqda. Aynan mana shu zamonaviy interaktiv mashg'ulotlar nutqida nuqsoni bor bolalarni rivojlantirishga ko'makchi bo'libgina qolmay balki ularda o'ziga va o'zgalarga ishonch ruhini shakllantirishga olib keladi. Biz mo'jizalar bo'lganini eshitganmiz yoki guvohi bo'lganmiz. Mo'jiza bo'lishining asosiy sababi bu-nutqida nuqsoni bor bolalar bilan oila-ota-ona-bog'cha-tengdoshlar tizimi asosida ishlansa natijasi hammamiz kutgan mo'jizaga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining yana bir yutug'i shundan iboratki, internet tizimidan erkin foydalana olishligi bo'lsa, ikkinchidan, videokonferensiyalarni oddiy markerli doskalardagi ma'lumotlarni interaktiv doskalar bilan bog'lay olishligidadir. SMART texnologiyasi asosida ishlab chiqarilayotgan interaktiv doskalar quyidagi qulayliklarni foydalanuvchilarga taqdim etmoqda. Yani ikki qavatli setkaga ega bo'lgan yuqori tasvirlarni katta ekran ko'rinishida namoyish eta oladigan bo'lib, bu namoyish etilayotgan tasvirning barcha imkoniyatlarini namoyish etib beradi.

Interaktiv panel bu - o'zida suyuq kristalli panel va axborotlarni kiritish qurilmasini mujassam etgan interaktiv vosita bo'lib, butun jarayonni maksimal tezkor boshqarish uchun yaratilgan. Bunda bevosita qo'l barmoqlari yordamida kursorni boshqarish va fayllar yoki operatsion tizim bilan xohlagan amallarni bajarish mumkin. Ularning ishlash prinsipi optik-sensorli texnologiyaga asoslangan. Interaktiv panelning maxsus datchiklari va kameralari ekran yuzasiga keltirilayotgan barmoq yoki boshqa predmetning ta'sir etish nuqtasi koordinatalarini aniqlaydi va unga mos ravishda kursor harakatini muvofiqlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv usullardan «Aqliy hujum», «Rolli o'yin», «Kichik guruhlarda ishlash», «Bahs-munozara», «Galereyaga sayr», «Klaster», «Bumerang», «Enerjayzerlar»dan foydalanish mumkin. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish jarayonida mashg'ulotning boshi va oxirida mavzu yuzasidan bolalarning tushunchalarini aniqlash hamda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun aqliy hujum usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq. «Kichik guruhlarda ishlash» bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslanadi. Bunda guruhda tahlil qilish, tekshirish asosida berilgan mavzu ishlab chiqiladi. «Rolli o'yinlar»da bolalarga biror muammoli vaziyat beriladi. Bolalar bu metod yordamida real hayot holatlarini jonlantiradilar. Bahs-munozara metodida bolalarga bir kun oldin mavzu beriladi. Bolalar savollarga ota-onalaridan so'rab javob topib keladilar hamda berilgan savollarga javoblar «bahs-munozara» asosida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida interaktiv texnik vositalardan foydalanish imkoniyati juda keng, undan yangi mavzuni o'rganishda, tinglovchilar bilimini mustahkamlashda va tekshirishda, majlislarida va boshqa tadbirlarda samarali foydalanish mumkin.

Ular yordamida o'tilayotgan mashg'ulotlar, tadbirlardagi ma'ruza, taqdimot va boshqa jarayonlar juda ham jonli ravishda taqdim etiladi. Ta'lim olishning ichki motivatsiyasi kuchayishi sababli, ta'lim jarayoni qiziqarli va kreativ tus oladi. Ta'lim-tarbiya uchun ajratilgan vaqtdan maksimal darajada unumli foydalaniladi.

Interaktiv doska bu – kompyuter va proektor bilan birgalikda ishlaydigan ta'lim berishning zamonaviy texnik vositasidir. Interaktiv doska tarkibiga interaktiv doskaning o'zidan tashqari maxsus elektron qalam (stilus), dasturiy ta'minot vositalari (interaktiv doskaning drayveri va maxsus grafik muharrir) hamda USB kabel kiradi.

Tegishli sozlash amallari bajarilib interaktiv doska ishchi holatga keltirilgach, proektor yordamida interaktiv doska yuzasiga tushirilayotgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin. Ya'ni, elektron qalam yordamida kompyuterning grafik interfeysini boshqarish, turli ob'ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob'ektlarni ochish, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish va h.k. Kiritilgan barcha o'zgartirishlar va yaratilgan yangi ob'ektlarni, ularga kelgusida qo'shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo'yish yoki tashqi axborot tashuvchi vositalarga ko'chirib olish mumkin. Interfaol doska maxsus elektron qalam orqali, shuningdek qo'l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin, bu interfaol doskanining qaysi texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi. Bunda maxsus elektron qalam yoki qo'l barmoqlari kompyuter sichqonchasi kabi ishlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida interaktiv doskadan ikki rejimda foydalanish mumkin: birinchi rejimda elektron qalam faqat kompyuter sichqonchasining vazifasini bajaradi, ikkinchi rejimda esa u maxsus dasturiy ta'minotning barcha uskunalari vazifasini bajaradi (masalan - oddiy qalam, marker, mo'yqalam, o'chirgich, qaychi, lupa va boshqalar).

Elektron qalamning doska yuzasidagi holati va harakatlariga oid ma'lumotlar elektron doskadan USB kabel orqali kompyuterga uzatiladi va ushbu ma'lumotlar qayta ishlanib elektron qalamning harakatiga mos amallar bajariladi.

Interaktiv qurilmalar tarkibiga qurilmaning o'zi, ya'ni maxsus elektron qalamdan chiqayotgan signalni qabul qiluvchi moslama, ushbu qabul qiluvchi moslamaga infraqizil yoki ultratovushli signallarni yuboruvchi elektron qalam, interaktiv qurilma va kompyuterning o'zaro aloqasini ta'minlovchi USB kabel yoki simsiz qabul qilgich uskunasi, dasturiy ta'minot vositalari kiradi. Ular infraqizil yoki ultratovushli texnologiyalar asosida ishlaydi.

Tarbiyach pedagog interaktiv doskaning keng imkoniyatlardan foydalanadi. Xususan:

- kompyuterni doska oldida turib boshqarish imkoniyati: Microsoft Office dasturlari bilan ishlash, dars jarayonini oldindan tayyorlangan taqdimotlar, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar bilan nomoyish etish;
- interaktiv qurilma dasturiy ta'minotining uskunalari yordamida ekrandagi tasvir ustiga yoki yangi varaq (slyd) ustiga chizish, bo'yash, rasm solish, yozish, tayyor ob'ektni o'rnatish, ob'ektlarni kattalashtirish, kichraytirish, boshqa joyga ko'chirish, ma'lum bir qismini belgilash imkoniyatlari;
- doskada bajarilgan ishlarni fayl ko'rinishida kompyuter xotirasida saqlash yoki doskada amalga oshirilayotgan barcha jarayonlarni videofayl formatida yozib olish;

- o‘zining shaxsiy interaktiv dars ishlanmalarini yaratish, bunda interaktiv qurilmaning dasturiy ta‘minot kutubxonasidagi mavjud shablon va tasvirlardan foydalanish;
- interaktiv qurilmaning dasturiy ta‘minoti tarkibiga kiruvchi tasvirlar kutubxonasini o‘zi tayyorlagan yangi materiallar bilan boyitib borishi va boshqa imkoniyatlar.

Interaktiv proektor bu - o‘zida interaktiv doskaning imkoniyatlarini mujassam etgan proektordir. Bunday proektorlar uchun alohida maxsus doska sotib olish talab etilmaydi, tasvirlar proeksiyasi oddiy doskada, marker doskasiga yoki xona devoriga ham tushirilishi mumkin. Oddiy proektordan farqli ravishda interaktiv proektorlar kompyuterdan tegishli signallarni qabul qilib tasvirlarni ekranga namoyish qilish bilan bir qatorda, elektron qalamning ekrandagi joriy holati va harakatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ham aniqlab kompyuterga yuboradi va kompyuter bilan ikki tomonlama aloqani o‘rnatadi. Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib quydagilarni xulosa qilish mumkin: Hozirda har bir maktabgacha yoshdagi bola erkin ijod qilishi va o‘zining qobiliyatini ko‘rsata olish huquqiga ega. Ananaviy bo‘ladimi yoki noan‘anaviy mashg‘ulotlar bo‘ladimi ilg‘or xorijiy va milliy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda emotsiya bilan bolalarga iqtidorini va qobiliyatini namoyon qilishiga sharoit yaratib berishimiz zarur. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabga tayyorlashda bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar-interaktiv metodlardan foydalanish zarurdir. Chunki ilg‘or pedagogik texnologiyalar, noan‘anaviy usullar bilan ta‘lim-tarbiya berish hozirgi davrda juda yaxshi samara beradi, ta‘lim sifatini oshiradi. Mashg‘ulotlar jarayonida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachilar belgilangan pedagogik vaziyat uchun ketadigan taxminiy vaqtni aniq belgilab olishlari, mashg‘ulotni interfaol usullardan foydalanib, texnologik xarita asosida ketma-ketlikni to‘g‘ri belgilashlari darkorligi ko‘rsatib o‘tildi. Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan interaktiv usullar bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta‘limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimini modernizatsiyalashtirish – yuksak ma‘naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2009.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: «Iste‘dod», 2008.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga jo‘l riy qilish. – T.: «Fan va texnika», 2008.
4. Rukovodstvo polzovatelya interaktivnykh LCD/LED displeev.